



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-oktabr

590-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2024-yil 5-oktabrdagi 641-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 504-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2024-yil 5-oktabrdagi 641-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 23-oktabrdagi 504-6-0-Q/24-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, hududlarning jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini yanada takomillashtirish, yer uchastkalaridan oqilona foydalanishni ta‘minlash maqsadida qarorida belgilangan vazifalarni tumanda ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2024-yil 5-oktabrdagi 641-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 504-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarori bilan tasdiqlangan “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentiga” fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ma‘muriy binolarini barpo etish, kutubxonalar tashkil etish, diniy tashkilotlarga bino qurish maqsadida yer uchastkalari ajratilishini nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar ilovaga muvofiq kiritilganligi;

Manfaatdor vazirlik va idoralar o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarini bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirishi belgilanganligi e‘tiborga olinsin.

3. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (Hudoyberdiyev), Davlat kadastr palatasining tuman bo‘limi (Esonaliyev), manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidada” 2024-yil 5-oktabrdagi 641-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**